FARG‘ONA VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI





# FARG‘ONA VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

***2022-YIL YANVAR-MAY***

***(DASTLABKI MA’LUMOT)***



# Farg‘ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022-yil yanvar -may oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022-yilning yanvar-may oylarida Farg‘ona viloyati korxonalari tomonidan 10 617,7 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021-yilning yanvar-may oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 107,1 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 93,0%ni tashkil etdi.

| 0,2% | 93,0% | 5,9% | 0,8% |
|---|---|---|---|
| **B** | **C** | **D** | **E** |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | Ishlab chiqaradigan sanoat | Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish |

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* %da

| | 2021-yil yanvar-may | 2022-yil yanvar-may |
|---|---|---|
| B | 38,2% | 39,3 % |
| C | 101,9% | 105,8 % |
| D | 102,8% | 130,1 % |
| E | 76,5% | 101,3 % |

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

*Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat 5,8 %ga o‘sishi kuzatildi.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati

**yanvar-may**

2022-yil
24,4 mlrd. so‘m

2022-yil
39,3%

2021-yil
22,1 mlrd. so‘m

2021- yil
38,2%

B

*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 24,4 mlrd.so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 %ini tashkil etdi.*

## Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda

| 2021-yil | 2022-yil |
|---|---|
| B | B |
| 0,2% | 0,2% |

yanvar-may

## Ishlab chiqaradigan sanoat




*2022-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9 879,8 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 93,0 %ini tashkil etdi.*

**2021-yil yanvar-may** 93,2%

**2022-yil yanvar-may** 93,0%

*O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 %ni (2021-yilning yanvar-may oylarida – 0,4 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 13,0 % (11,7 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 19,6% (25,3%) va quyi texnologiyalisi – 60,3% (55,8%)ni tashkil etdi.*



*Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 5,2 % (2021-yilning yanvar-may oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 124,9%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 42,4% (2021-yilning yanvar-may oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 117,2 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,1% (2021-yilning yanvar-may oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 109,9%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 11,1 % (2021-yilning yanvar–may oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 105,7 %)ni tashkil etdi.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari

**Dizel yoqilg'isi ming t**




**Avtomobil benzini ming t**




**Klinkersement ming t**




**O'simlik yog'i (tozalangan) ming t**




**Portlandsement ming t**




**Yumshoq bug'doy va spelta uni ming t**



**Neft bitumi ming t**




**Aroq ming litr 100% spirt**




**Uzum vinosi ming l**




**Karbamid, ming tonna**




**Paxta chigiti , ming tonna**




**Paxta linti ming t**




*2022-yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 85,5 ming tonna avtomobil benzini (2021-yilning yanvar-may oyiga nisbatan 13,9%ga kamaygan ), 121,3 ming tonna dizel yoqilg`isi (20,3 % kamaygan), 56,1 ming. tonna kalava ip mahsulotlari (3,4%ga ortgan) hamda 2555,0 ming kv metr paxtadan tayyorlangan matolar (12,2%ga kamaygan) ishlab chiqariligan.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021-yil yanvar-may | 2022-yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| | | | |
| **Avtomobil benzini, ming t** | 99,4 | 85,5 | -13,9 |
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming t.** | 108,2 | 96,6 | -11,6 |
| **Paxta chigiti, ming t.** | 23,9 | 39,3 | 15,4 |
| **O‘simlik yog‘i (tozalangan), ming t.** | 11,3 | 6,9 | -4,4 |

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish




### Karbamid Ming. t

| 2021-yil | 2022-yil |
|---|---|
| 27,9 | 39,6 |



### Dizel yoqilg‘isi Ming. t

| 2021-yil | 2022-yil |
|---|---|
| 141,6 | 121,3 |




### Portlandsement . t

| 2021-yil | 2022-yil |
|---|---|
| 404,5 | 315,4 |




### Etil spirti Ming. l

| 2021-yil | 2022-yil |
|---|---|
| 6556,0 | 3868,0 |

*Farg‘ona viloyatida 2022-yil yanvar-may oylarida jami 39,6 ming tonna karbamid mahsuloti ishlab chiqarildi. Shuningdek dizel yoqilg‘isi ishlab chiqarish 121,3 ming tonna , portlandsement ishlab chiqarish 315,4 ming tonna . Etil spirt ishlab chiqarish 3868,0 ming litrni tashkil etgan .*

## Metallurgiya sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-may oylarida metallurgiya sanoati 63,6 mlrd.so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,7%ni, 2022-yilning yanvar-may oylarida metallurgiya sanoati 40,1 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,4%ni tashkil etdi.*




## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-may oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 977,1 mlrd so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 11,0 %ni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 1064,3 mlrd so‘mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 10,0 %ni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 1 422,5 mlrd.so‘mni, joriy 2022-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 1 498,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 9,9 %ga o‘sgan.*



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-may oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 27,3 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 17,8 mlrd.so'mni tashkil etib 9,5 mlrd. so'mga kamaygan va jami ishlab chiqaradigan sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 0,2 %ni tashkil etdi.*




## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 2724,2 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning jami ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 30,6 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022-yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 4006,0 mlrd.so'mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoatdagi ulushi 37,7 %ni tashkil etdi va 7,1 punktga ko'paydi .*

## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*2021-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,5 %ni ya'ni jami 315,1 mlrd.so'mni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-may oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 3,4%ni tashkil etib 364,3 mlrd.so'mga tengdir. Farg'ona viloyatida kiyim ishlab chiqarish o'tgan 2021-yilning mos davriga nisbatan 49,2 mlrd.so'mga ortgan.*



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish (farmasevtika)

*2021-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 20,0 mlrd.so'mni, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022-yilning yanvar-may oylarida Farg'ona viloyati bo'yicha 16,1 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib jami ishlab chiqariladigan sanoatdagi ulushi 0,2 %ni, tashkil etdi.*




## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




*2021-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 834,6 mlrd.so'mni tashkil etib jami ishlab chiqariladigan sanoatining 9,4 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022-yilning yanvar-may oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari jami ishlab chiqariladigan sanoatining 6,0 %ni tashkil etib, 633,2 mlrd.so'mni tashkil etdi.*

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*2021-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar sanoatdagi ulushi 2,1 %ni ya'ni 188,8 mlrd.so'mni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat o'tgan yilga nisbatan 26,8 mlrd.so'mga kamaygan va 162,0 mlrd.so'mni tashkil etdi.*



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2022-yil yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 627,1 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,9%ini) tashkil etadi.

2022-yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 104,1 mlrd .so‘mga ko‘payganligi kuzatildi.




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021-yil yanvar-may | 2022-yil yanvar-may | Farqi (+/-) |
|---|---|---|---|
| Elektroenergiya, mln.kVt.s | 155,0 | 152,2 | -2,8 |
| Issiqlik energiyasi, ming.gkal | 733,2 | 555,7 | -177,5 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 86,4 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 %ini) tashkil etdi.




| Sanoat mahsulotlari | 2021-yil yanvar-may | 2022-yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *mlrd.so‘m*** | 38,1 | 40,1 | 2,0 |
| **Axlat o‘ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo‘shatish, tozalash va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *mln.so‘m*** | 5,6 | 9,0 | 3,4 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 2,0 mlrd.so‘m yoki 24,8 %ga ortganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o‘ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo‘shatish, tozalash va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 3,4 mlrd. so‘m 17,2%ga ko‘paygan.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3019,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021-yilning mos davriga nisbatan 109,0%ni, uning jami sanoatdagi ulushi 28,4%ni tashkil etdi.*

### Oziq-ovqat mahsulotlari

**2021-yil yanvar-may** — **37,7%**

**2022-yil yanvar-may** — **43,1%**

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

**2021-yil yanvar-may** — **61,5%**

**2022-yil yanvar-may** — **56,4%**

*Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 16,5 mlrd.so‘mni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo‘qon shahriga to‘g‘ri kelib 59,3%ni va Farg‘ona tumanida 65,1%ni tashkil etdi.*

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo‘qon shahriga to‘g‘ri kelib, 477,4 mlrd.so‘mni yoki jami iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 15,8 %i, Farg‘ona shahrida 374,7 mlrd.so‘mni jami iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 12,4 %i shuningdek, Toshloq tumanida 266,4 mlrd. so‘mlik, 8,8 %ni tashkil etdi.*




*3 252,4 mlrd. so‘m*

*2021-yil yanvar-may*

*3 019,2 mlrd. so‘m*

*2022-yil yanvar-may*




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi

**2021-yil** **99,2%**

**2022-yil** **109,0%**

## Farg‘ona viloyati hududlari kesimida
## Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Farg‘ona shahriga to‘g‘ri kelib, 21,5%ni, shuningdek, Qo‘qon shahri 18,9%ni, Toshloq tumani 14,4%ni, Uchko‘prik tumani 7,1% tashkil etdi.*

### Farg‘ona viloyati

**2021-yil** — *8915,7 mlrd.so‘m*

**2022-yil** — *10617,7 mlrd.so‘m*

*yanvar-aprel*



**2021-yil** — 101,2%

**2022-yil** — 107,1 %

| Hudud | mlrd. so‘m | FHI, %da |
|---|---|---|
| Marg‘ilon.sh | 346,1 | 103,5 |
| Quvasoy.sh | 489,8 | 107,4 |
| Qo‘qon.sh | 2007,1 | 111,8 |
| Farg‘ona.sh | 2280,6 | 97,5 |
| Yozyovon.t | 58,9 | 112,5 |
| Furqat.t | 184,8 | 110,2 |
| Dang‘ara.t | 302,4 | 115,3 |
| Farg‘ona.t | 375,5 | 113,2 |
| O‘zbekiston.t | 240,9 | 98,8 |
| Toshloq.t | 1525,9 | 109,5 |
| So‘x.t | 26,2 | 99,1 |
| Rishton.t | 194,2 | 112,5 |
| Uchko‘prik.t | 754,0 | 99,2 |
| Quva.t | 258,8 | 112,0 |
| Beshariq,t | 267,5 | 115,8 |
| Buvayda.t | 124,9 | 118,8 |
| Bog‘dod.t | 305,2 | 102,8 |
| Qo‘shtepa.t | 503,9 | 113,4 |
| Oltiariq.t | 262,3 | 124,6 |

*FHI, %da*

*mlrd. so‘m*

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining Farg‘ona viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Toshloq tumaniga to‘g‘ri kelib, 14,4% shuningdek, Qo‘qon shahri 16,6 %, Farg‘ona shahri 14,8 %ni tashkil etadi.*

***2001,5*** *mlrd. so‘m*

*2021-yil yanvar-may*

***1702,9*** *mlrd. so‘m*

*2022-yil yanvar-may*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

**2021-yil** 105,7 %

**2022-yil** 108,4 %



## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Farg‘ona viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko‘prik tumaniga to‘g‘ri kelib 22,8 %ni, shuningdek, Qo‘qon shahri 13,9% ni, Farg‘ona shahri esa 9,5 %ni tashkil etdi.*




*o‘sish sur’ati* *mlrd. so‘m*

*1 226,8 mlrd.so‘m*
*2021-yil yanvar-may*

*1 299,8 mlrd.so‘m*
*2022-yil yanvar-may*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

**2021-yil** **90,2 %**

**2022-yil** **111,0 %**

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Farg‘ona shahrida (7604,4 ming.so‘m), Qo‘qon shahrida (7710,7 ming.so‘m) hamda Toshloq tumanida (7257,5 ming.so‘m) ,Quvasoy shahrida (5045,5 ming.so`m),Uchko‘prik tumanida (3169,1 ming so‘m).*




*o’sish sur’ati*

*ming. so‘m*

### Farg‘ona viloyati

2021-yil — 2329,7 ming. so‘m

2022-yil — 2719,1 ming. so‘m



2021-yil — 98,4%

2022-yil — 105,0%

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Farg‘ona viloyati bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 773,2 ming.so‘m bo‘lgani holda, Qo‘qon shahrida – 1833,9 ming.so‘mni, Toshloq tumanida 1266,4 – Uchko‘prik tumanida 1996,4 – Farg‘ona shahrida 1249,5 ming so‘mni, tashkil etdi.*

### Farg‘ona viloyati

**2021-yil**
849,9 ming. so‘m

**2022- yil**
773,2 ming. so‘m



**2021-yil** 97,4 %

**2022-yil** 106,8 %




*ming. so‘m*

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2022-yilning yanvar -may oylarida %da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 3 924,9 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 37,0 %ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida viloyatdagi Beshariq, So'x, Yozyovon tumanlari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 100% kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga tashkil etilgan . Kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Uchko'prik tumani (83,1%), Bog'dod tumani (78,9%), Buvayda tumani (84,6%),Dang'ara tumani (47,9%), Rishton tumani (58,6%),tashkil etgani holda eng past ulushli hududlar Toshloq tumani (9,4%),Farg'ona tumani (11,9%), Quva tumani (21,5%), sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes sub'yektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



## Farg‘ona viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Farg‘ona viloyatida 10928 ta sanoat korxonalari ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib ulardan 10298 faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1416 tasi (faoliyat ko‘satayotgan korxonalar umumiy sonining 13,8 %) Qo‘qon shahriga, 1202 tasi (11,8%) Farg‘ona shahriga, 1036 tasi (10,6 %) Marg‘ilon shahriga, 681 tasi (6,6%) Uchko‘prik tumaniga, 614 tasi (6,0 %) O‘zbekiston tumaniga, 609 tasi (5,9 %) Dang‘ara tumaniga to‘gri kelmoqda.




### Jami yangi tashkil etilgan

**2021-yil** — 828 dona

**2022-yil** — 977 dona



### Jami faoliyat yuritayotgan

**2021-yil** — 9617 faol dona

**2022-yil** — 10298 faol korxona